OLIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA QONUNLARNING O‘RNI VA ROLI

Tursunova Olmos Fayzievna
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi dotsenti
e-mail:olmostursunova1@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’lim tizimini rivojlantirishda yoshlarga oid normativ-huquqiy hujjatlar mohiyati yoritib berilgan. Oliy ta’limda tahsil olayotgan yoshlarning huquqiy madaniyati, huquqiy ongi va huquqiy bilimini yuksaltirishdagi me’yorlar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, huquqiy madaniyat, huquqiy bilim, huquqiy ong, normativ-huquqiy hujjatlar.

Rezume: The article describes the nature of regulatory documents relating to youth in the development of the higher education system. Standards for increasing legal culture, legal awareness and legal knowledge of young people studying in higher educational institutions have been identified.

Key words: youth, legal culture, legal knowledge, legal consciousness, legal acts.

O‘zbekistonning kelajagi, birinchi navbatda, yoshlarga, ularning amaliy faoliyatiga, axloqiy barkamolligiga, irodaviy sifatlariga, mustaqil pozitsiyasiga, g‘oyaviy, siyosiy, huquqiy etuklik darajasiga, milliy o‘zligini qanchalik chuqur va mukammal anglab olishlariga bevosita bog‘liq. Jamiyat taraqqiyotini, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bilan bog‘liq bo‘lgan ulkan vazifalarni bajarishga ommani safarbar etishni mafkurasiz tasavvur etish mumkin emas. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida shunday deyiladi: «Xalqimizda «ta’lim va tarbiya beshikdan boshlanadi» degan hikmatli bir so‘z bor. Faqat ma’rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga etaklaydi.

Shu sababli, ta’lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta’lim tizimi printsipiga asoslanishi, ya’ni ta’lim bog‘chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim».

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha fuqarolarga taalluqli me’yorlardan tashqari, aynan yoshlarni huquqiy ongini yuksaltirishga doir bo‘lgan qoidalar ham mavjud. Jumladan,

33-modda: «Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi”.

Shuningdek, O‘zbekiston 2016 yilning 14-sentyabrida O‘zbekiston Respublikasida «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinganini alohida qayd etib o‘tish joiz. Ushbu huquqiy hujjat bosh islohotchi bo‘lgan davlatning yoshlar masalasiga doir strategik yo‘nalishlarini izchil va tizimli ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘llarini belgilab

berdi. Yoshlarga oid davlat siyosati davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimidir. Shunday ekan, qonun yoshlarimizning huquqiy madaniyatini oshirishda huquqiy kafolat hisoblanadi, normativ-huquqiy aktda yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash belgilab qo‘yilgan.

Ushbu qonunga ko‘ra, davlat yoshlar siyosatini amalga oshirar ekan, avvalo, millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqei, jinsi, ma’lumoti va siyosiy e’tiqodidan qat’iy nazar, yoshlarga g‘amxo‘rlik qilish, ularni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish, milliy-madaniy an’analarning avloddan avlodga o‘tishi, avlodlarning ma’naviy aloqalarini ta’minlash, yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida o‘z manfaatlarini amalga oshirish yo‘llarini erkin tanlab olishlarini kafolatlash, jamiyat va yoshlar hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishini ta’minlashni o‘ziga vazifa qilib olishi belgilab qo‘yilgan.

Ta’kidlash lozimki, so‘nggi yillarda yoshlarning ijtimoiy faolligi o‘sib borayotganligini kuzatish mumkin. Bu borada ularda shakllanayotgan ijtimoiy va mafkuraviy tushuncha va g‘oyalarning ahamiyati kattadir. Shu nuqtai nazardan, “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasida yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta’lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish belgilab qo‘yilgan.

Bugungi kunda O‘zbekiston qanchalik qaltis dunyo bilan aloqaga kirishganligini kuzatish mumkin. Mintaqamizda yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlash zaruriyatining sabablaridan biri shundan iboratki, bozor iqtisodiyoti chet el sarmoyalari, zamonaviy texnika va texnologiya, bozorni shakllantirish usullari bilan bir qatorda mamlakatimizga o‘zining madaniyati, turmush tarzi, dunyoqarashi va tasavvurlarini ham olib kirmoqda. Global mafkuraviy tahdid va tajovuzning xavfi - ularning yurtimizga ochiq kirib kelishidir. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi Farmonida yoshlarning ilmiy va badiiy kitoblar, jumladan, elektron asarlarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm, «ommaviy madaniyat» va boshqa yot g‘oyalarga qarshi mustaqkam immunitetni shakllantirish muhimligi qayd etilgan.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘zlarining Oliy Majlisga qilgan murojaatlarida: «Oliy ta’lim tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirishimiz zarur.

O‘zbekistonda oliy va o‘rta maxsus ta’lim maskanlari bitiruvchilarini oliy ta’lim bilan qamrab olish o‘tgan davrda 9-10 foiz darajasida bo‘lib kelayotgan edi. So‘nggi ikki yilda ko‘rilgan chora-tadbirlar tufayli, biz bu raqamni 15 foizdan oshirishga erishdik.

Lekin bu hali etarli emas. Chunki dunyodagi rivojlangan davlatlar tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkich ularda 60-70 foizni tashkil etadi».

Shuningdek, Yoshlarimizning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga, jumladan, axborot texnologiyalari rivojlangan bir paytda yoshlarimizning virtual saytlar to‘riga aralashib qolishi, «mumkin bo‘lmagan» mavzularda bahsga kirishib ketishi, virtual jihodlar kabi «kasallik»larga nisbatan immunitetni shakllantirish zarur. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni bugungi kunda yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlashga dasturulamal bo‘ladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Jumladan, farmonda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta’lim-tarbiyani tizimli va uzviy

ravishda olib borilishiga alohida e’tibor qaratish, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini keng targ‘ib qilish belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda, yuqoridagi «kassallik»larga nisbatan albatta yurtimizda javobgarlik asoslari belgilanganligini yoshlarimiz ongiga sindirib borishimiz shart.

Ijtimoiy hayotda yoshlar faoliyatiga nisbatan liberal siyosat yuritish ular tarbiyasiga putur etkazadi. Azaldan yoshlarning faoliyati ota-ona, qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla va keng jamoatchilik tomonidan doimo nazoratda bo‘lib kelgan. Yoshlar huquqiy madaniyatini oshirishda quyidagilarga e’tibor qaratish bizningcha to‘g‘ri bo‘lar edi:

Birinchidan, «shaxs – oila – mahalla – ta’lim muassasasi – tashkilot - jamiyat» kontseptsiyasi asosida barchada daxldorlik hissini uyg‘otish;

Ikkinchidan, barcha bo‘g‘indagi ta’lim muassasalarida korruptsiyaga qarshi kurash bo‘yicha keskin choralar ko‘rish. Buning uchun, salohiyatli, ilmli yoshlar o‘rtasida turli xil brifinglar, master klasslar, konkurslar tashkil etish va rag‘batlantirish. Pedagog va talaba-yoshlarga har bir ilmiy ishi uchun eng kam oylik ish miqdorida rag‘batlantirish. Zero, investitsiyalarga bilimga, g‘oyaga qaratilsa yoshlarimiz barcha masalalarga kreativ yondashadilar.

Uchinchidan, ta’lim muassasalarida sog‘lom raqobatni kuchaytirish. Masalan, «Prezident asarlari bilimdoni», «Huquqiy bilimdon», «Deputat bo‘lsam», «Senator bo‘lsam», «Hokim bo‘lsam» kabi konkurslar tashkil etish. Konkurs ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar oddiy, «…bo‘lsang, avvalo qanday qonunlarni qabul qilgan bo‘larding? Kontseptsiyangni ishlab chiq? Qaysi qonunlarga qanday o‘zgartishlar kiritish lozim, nega? Asoslang. Va hakozo.

To‘rtinchidan, har bir ta’lim mussasasi qoshida «Huquqiy klinika» tashkil etish, volontyorlardan iborat guruh yurtimizda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy aktlar bilan aholining turli qatlamlarini tanishtirib boradi, albatta reja asosida bir oyda bir marta. Targ‘ibot-tashvig‘ot ishlarini olib boradilar. Zero Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: «Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – dekmokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!»

Beshinchidan, turli xil stipendiyalar, mukofotlar ta’sis etishini tavsiya qilamiz.

Oltinchidan, «Yosh qonun ijodkori» shiori ostida insholar, rasmlar, albomlar, video, audio ko‘rsatuvlari, she’rlar, qonun loyihalari konkurslarini tashkil etish.

Vatanimizdagi har bir yosh avlod ongiga ana shu maqsadlarimizni singdirib borsak, ularga yangi zamonaviy bilimlar berib, milliy g‘oyamiz ruhida tarbiyalasak, ertaga mehnatimizning samarasini albatta ko‘ramiz. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bu yo‘lda bizga ishonch va ilhom, g‘ayrat va shijoat beradigan beqiyos bir kuch-qudrat borki, biz unga tayanib, o‘z maqsadlarimizga albatta etamiz. Bu – hayot sinovlarida toblangan, so‘zida qat’iy turadigan, ishning ko‘zini biladigan, mehnatkash, mard va matonatli xalqimizdir. Biz bugun ko‘p millatli xalqimizga, barchamizning umidimiz va suyanchimiz bo‘lgan yoshlarimizga ishonib, marrani katta olmoqdamiz. Aziz farzandlarimiz, nabiralarimiz baxtini, kamolini o‘ylab, el-yurtimizning, xalqimizning yorug‘ kelajagini ko‘zlab, oldimizga ulkan vazifalar qo‘ymoqdamiz”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida». Xalq so‘zi gazetasi, 2016-yil 15- sentyabr, № 182 (6617). 1-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 23-b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi Farmoni. Zarafshon gazetasi, 2017-yil 8-iyul № 85 (22885) 2-b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi «O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2023 y., 6-son, 70-modda.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Mahalla gazetasi. 2019 yil 29-dekabr 164-165-son (1642). 3-bet.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni. Xalq so‘zi gazetasi, 2019-yil 10-yanvar, № 5 (7235). 4 b.